

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-sentabrda Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 13569,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 6,6%ga o'sdi.

2019 yil yanvar-sentabr oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 7350,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,9% ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo'shgan xissasi 3,7%ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	<i>Mrd.so'm</i>		<i>2018 yil. yanvar-sentabriga nisbatan, % da</i>
	<i>2018 yil yanvar-sentabr</i>	<i>2019 yil yanvar-sentabr</i>	
I. YaHM	10 812,7	13 569,4	106,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 477,0	12 993,3	106,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	335,7	576,1	110,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 477,0	12 993,3	106,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5 361,8	6 078,2	103,1
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 997,8	2 867,5	115,6
sanoat	1 360,1	1 984,9	112,0
qurilish	637,7	882,6	123,1
Xizmatlar	3 117,4	4 047,6	106,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	610,9	751,2	107,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	708,6	780,5	104,2
boshqa xizmat tarmoqlari	1 797,9	2 515,9	107,1

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qurilish – 123,1% (YaHM tarkibidagi ulushi 6,8%), sanoat – 112,0% (YaHM tarkibidagi ulushi 15,3%), xizmatlar-106,6% (YaHM tarkibidagi ulushi 31,1%), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi -103,1% (YaHM tarkibidagi ulushi 46,8%)ni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-sentabrda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 95,8%ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,2%ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 4,4 punktga kamaydi va hisobot yilida 46,8%ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 3,0 punktga oshdi va 22,1%ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 31,1%ni tashkil etdi va 2018 yilning mos davri (29,7%) bilan taqqoslanganda 0,6 punktga ko'paydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-sentabr



2019 yil yanvar-sentabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi – 5,8%ni (2018 yil yanvar-sentabr 5,8%), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,0%ni (6,8%), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 19,3%ni (17,1%) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiq nisbatan foizda)

2018 yil
yanvar-sentabr



2019 yil
yanvar-sentabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko`rsatuvchi boshqa tarmoqlar

*Statistika faoliyatini tashkil etish va
yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi*
Nashr uchun mas'ul: M.Sultanmurotov
Tel: (0-371) 230-87-65